

FRANSIYA–O'ZBEKISTON ALOQALARINING TARIXIY ILDIZLARI

T.N. Baxodir qizi

Buxoro davlat universiteti 2-kurs magistranti
(Tarix yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha)

Yu.A. Shukrullayev

Buxoro Muhandislik Texnalogiya dotsenti, tarix fanlari nomzodi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘rta asrlarda O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasida Diplamatik aloqalarning o‘rnatilishi va Amir Temur va Fransiya qiroli o‘rtasidagi yozishmalar va ularning ahamiyati haqida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: diplomatik munosabatlar, rasmiy hujjatlar, Temur tuzuklari, Frangiston, savdo aloqalai, Buyuk iapak yo‘li. Ilmiy tadqiqot.

O‘zbekiston respublikasi mustaqilligi e’lon qilingandan so‘ng xalqaro maydonda o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun Yevropa davlatlari bilan diplomatik aloqalarni urnatishga harakat qildi. O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi diplomatik munosatlar tarixi o‘rta asrlarga borib taqaladi. Buyuk bobokalonlarimiz vatanmiz va millatimiz shon-shuhratini butun dunyoda jumladan Fransiyada ham keng yoyganlar. Buyuk qomusiy olim Beruniy fransuz xalqiga Aliborn nomi bilan mashhurdir. Fransuzlar Al-Xorazmiyni ham qadrlaydilar. Amir Temur Yevropa favatlari boshliqlari bilan faol siyosiy va savdo munosabatlarni olib borgan. Bularga o‘sha davrdan hozirga qadar saqlanib qolgan rasmiy hujjatlar, ya’ni diplomatik yozishmalar guvohlik beradi. Amir Temur tashqi siyosatda tutgan o‘rnini diplomatik yozishmalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi¹¹. Amir Temur va uning uchinchi o‘g‘li Mirzo Mironshoh bilan Fransiya, Angliya, Kastiliya va boshqa mamlakat qirollari bilan yozishmalarini ko‘rsatish mumkin. Bu yozishmalar Fransiya milliy arxiv, Britaniya muzeyi va Ispaniya arxivlarida saqlanmoqda¹². Parijdagi milliy arxivda saqlanayotgan yozishmalarning ko‘pchiligi L.Kerenning,,Tamerlan davrida Samarqand yo‘li „nomli kitobida keltirilgan.¹³ Hozirgi kunda Fransiya milliy arxivida 4ta xat salanmoqda.

¹¹ B.Axmedov.Amir Temur.Toshkent,1995.583-bet.

¹²L.Keren,A.Saidjonov Amir Temur va Fransiya.T.;Adolat,1996.-78 b.

¹³L.Kheren .La route de Samarkand au temps de Tamerlan .Paris,1990.p. 293-299.323-324

Ular quydagilar:

Birinchisi: Amir Temurning Fransiya qiroli Karl IVga fors tilida yozilgan xati;

Ikkinchisi: Shu xatning arxiyepiskop Ionanning o‘zi tomonidan yoki boshqa birov tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan nusxasi;

Uchinchinchisi: Fransiya qiroli Karl IVning Amir Temurga lotin tilida yozgan xatning nusxasi;

To‘rtinchisi: Mirzo Mironshohning uch basroniy qirolga yuborgan xatning lotin tiliga tarjima qilingan nusxasi. Ionan tomonidab keyinchalik Angliya qiroliga berilgan.

Bu xatlar birinchi marotaba 1882-yilda fransuz sharqshunos olimi Silvestre De Sasi tomonidan „Tamerlanning SharlIV bilan yozishmasi haqidagi xotiralar“¹⁴ va X.Moranville tomonidan „Tamerlan va uning saroyi haqida 1403-yili dominianlik bir kishi tomonidan yozilgan xotiralar“¹⁵ maqolalarida o‘rganilgan. Amir Temurning Fransiya qiroli KarlVIga maktubi Forsiydan Fransuz tiliga Professorlar D.Majub, L.Keren va D.Bogonovich tomonidan tarjima qilingan. Amir Temur va Fransiya qirollari o‘rtasidagi yozishmalarda savdo sotiq va madaniy aloqalarni rivojlantirish, shu orqali o‘z xalqlari o‘rtasida do‘stlik va birodarlikni rivojlantirgan. Amir Temur ham avlodlarga nasihat tarzda yozilgan „Temur tuzuklarida“ turli xalqlarning afvoldidan xabardor bo‘lib turish,“....har yerning tabiat, har elning rasmi odatlari, mijozidan voqif bo‘lib turish” lozimligini ta’kidlaydi. Sohibqironning o‘zi esa turlin xalqlarning turish turmishidan xabardor bo‘lib turish maqsadida savdo karvonlari tashkil etadi va chet el mamlakatlarga boradi. ”har bir mamlakatga va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki ular qayerga borishmasin Xitoy, Misr shom, Farangiston u yerlearning nafis matolari va munosib tuhfalaridan keltirishsin. O‘sha mamlakatlarda ishlovchi kishilarning hol –ahvoli , turish-turmushi haqidagi ma’lumotlarni aytsinlar“. Har bir ishida otasi bilan kelishib ish tutgan shahzoda Mironshoh nasroniy shohlarga yo‘llagan maktubida buni alohida ta’kidlaydi:... agar e’tiqodimizda farq bo‘lsa ham, baribir barchaning manfaati, ayniqsa, savdogarlarning manfaatlarini ham avaylashimiz darkor“. Bu fikrlar musulmon mamlakatlari hukmdorlari tomonidan milliy madaniy bag‘rikenglik sari tashlangan dastlabki qadamdir.¹⁶ Ushbu munosabatlar natijasida Fransuzlar movorounnahrni kashf etgan bo‘lsalar, Bizning ajdodlarimiz Fransuz xalqi haqida tasavvurga ega bo‘ldilar. Sohibqiron Amir temur Fransuz xalqiga yuksak hurmati, uning Samarqand

¹⁴ Silvestre de Sacy. ‘‘Memoires sur une correspondance inedite de Tamerlan avec Charlemagne VI ‘’, *Memories De L’Akademie des inscriptions et belles Lettres*, 6, Paris, 1822, p.470-522

¹⁵ H.moranville, *Memoires sur Tamerlan et ses cour par un dominicain, en 1403*”, Biliotheque de L’Ecole nationale des chartes LV.Paris,1894,p.1-32.

¹⁶ “O‘zbekistonda xorijiy tillar “ilmiy metodik elektron jurnal.N4(23)/2018.306-b.

atrofidagi go‘zal go‘shalaridan birini Parij sharafiga Forish deb nomlanganligidan bilsa bo‘ladi.

Keyinchalik yurtimiz mustamlaka o‘lkaga aylantirilib ,ulug‘ ajdodlarimiz asossiz ravishda tarix sahifalardan o‘chirishga harakat qilgan davrlarda aynan fransuz olimlari va tadqiqotchilari tomonidan amir Temur va Temuriylar davri san’ati va madaniyatining jahon tarixida tutgan o‘rni ko‘rsatib berildi. Uzoq XV asrda Amir Temur Yevropani Boyazid zulmidan xalos etib uning mustaqil davlat bo‘lib saqlab qolishi va taraqqiy etishiga yordam bergen bo‘lsa, XXasrda fransuz sharqshunoslari sobiq ittifoq zulmidan ozor chekayotgan o‘zbek xalqini ma’naviy jihatdan qo‘llab turdi, uning tarixiy shaxslari, Amir Temurning dunyo tarixida tutgan o‘rnini jahon hamjamiyatiga eslatib turdi. Demak, O‘zbekiston va Fransiya davlatlarining o‘zaro do‘stona munosabatlari 500-600yillik tarixga ega. Bu xolatlar sinovlardan o‘tgan tarix ekanligini ko‘rsatadi.

Fransiyalik tadqiqotchi Lyusen Keren e‘tirofiga ko‘ra ,”Temurning maqsadi Ipak yo‘li atalmish savdo yo‘lini butun ovropaga cho‘zishdan iborat bo‘lgan.O‘z zafar lari bilab Temur shu yo‘llarning tashkilotchisi bo‘lgan”. Sohibqiron Amir Temur

Fransiya qiroli KarlVI bilan yozishmalar olib borgan, o‘zaro elchilar almashgan. Amir Temurning KarlIvga yo‘llagan maktubidan namuna „.....siz savdogarlaringizni biz tomonlarga yuborsangiz, toki biz ularni qizg‘in, barcha izzatlarini o‘rniga qo‘yib kutib olaylik. Bizning savdogarlarimizsiz tomonlarga borsalar va ularga ham shunday izzat ikromlar ko‘rsatsanglar. Mayli ular hech qanday xavf-xatarsiz yursinlar”¹⁷. Qiyoslash uchun shu maktubning akademik B. Ahmedovning „Amir Temur “tarixiy romanida keltirilgan tarjimasida Savdogarlarga quydagicha ta’rif berilgan,.....jahon tijorat ahli birla oboddur”.¹⁸ Fransiya qiroli Karl VIga Amir Temurning yo‘llagan javob maktubida,,biz Mamlakatimizga kelgan odamlaringizning manfa’atlarini himoya qilishga va ortiqroq huquq berishga tayyormiz”¹⁹.Amir Temur maktubladrini o‘qir ekansiz ularning naqadr amaliyligi va Hayot bilan hamnafas ekanligini his qilamiz. Bu maktublardan umumiy dushmanga qarshi kurashishda hamfikrlilik va bu sa‘y harakatlarning natijalari yaqqol ko‘zga tashlanadi.Maktublarning birida Amir Temurning yevropaga ko‘rsatgan buyuk yordami o‘z ifodasini topgan.Fransiya qiroli KarlVI ga yo‘llagan maktubida quydagilarni o‘qishimiz mumkin:, Darvoqe qudratingiz ko‘p yurtlarga yoyilganligini yaqinda Turkiyada bo‘lganimizda eshitdik. Yana savdogarlarning va boshqa odamlarning qiziqishidan xabardor bo‘ldik. Saroyingiz ravnaqi, qudrati va tartiboti bizni ko‘p faxtiyor qildi. Men bilan bir qonun va e‘tiqodga mansub bo‘lgan, lekin men va mening do‘stlarim bilan ahdini

¹⁷ Keren L.,Saidov A.Amir Temur va Fransiya.-T.:Adolat,1996.-74b.

¹⁸ B.Ahmedov.Amir Temur.-T,1995.-584b.

¹⁹Keren L.Saidov.A.Amir Temur Va Fransiya.-t.:Adolat,1996.-80b.

buzgan turk Boyazit bilan odamlaringizning g‘animlikllarini eshitib, uni tor-mor etishga qaror qildik. Birodarlarimiz himoyasi va sizga bergan vadalarimiz bois Turkiyadagi umumiy muxolifatimiz ustiga yurish qildik va ollohning madadi bilan uni va yurtini zabit etdik.

Taniqli Fransuz olimi E.Langle „Temur tuzuklari”ni 1787- yili Nizomiddin Shomiyning „Zafarnoma” asarini Chex olimi Tauer 1937-yili fransuz tiliga tarjima qilgan. Ibn Arabshohning „Amir Temur tarixi” nomli 1658-yili, Sharafiddin Ali Yazdiyning „ Zafarnomasi” 1722-yili fransuz tiliga tarjima qilingan. Frabsuz tilida yozilgan „ Sharq Antalogiyasi “ ni tilga oladigan bo‘lsak uzun ro‘yhat paydo bo‘ladi²⁰.

Sohibqiron Amir Temur va uning davriga qiziqish Fransiyada XXasrda yanada kuchaydi. L.Buvaning „Temuriylar sivilizatsiyasi haqida qissa” (Parij,1926), A.Dyure va Fovelning „Samarqand istehkomi” (Parij,1901), A.Shamprodorning „Temurlang (Parij 1924), M.Persheronning „ Osiyo xoqonlari” (Parij,1951), R.Grussenning,, Sahro Sohibqironi” (Parij,1939) kabi asarlar Temurshunoslikka qo‘shilgan asarlar jumlasidandir. Xulosa qiladigan bo‘lsak Temuriylar davrida Frabsiya bilan diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Anqara jangidagi g‘alabadan so‘ng Amir Temur yevropa xaloskoriga aylandi. Buyuk ipak yo‘lidagi savdo aloqalari tiklandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B.Axmedov.Amir Temur.Toshkent,1995.583-584b.
- 2.L.Keren,A.Saidjonov Amir Temur va Fransiya.T.;Adolat,1996.74-78 -80b.
- 3.L.Kheren .La route de Samarkand au temps de Tamerlan .Paris,1990,p. 293-299.323-324
- 4.Silvestre de Sacy. ‘’Memoires sur une correspondeb ce inedited de Tametlan aves Charli VI ‘’,Memories De L’Akademike des inskriptios et belles Lettres ,6,Paris ,1822,p.470-522
- 5.H.moranville,Memoires sur Tamerlan et as cour par un dominicain, en 1403’’,Bialiothegue de L’Ecole nationale des chartes LV.Paris,1894,p.1-32.
- 6.,,O‘zbekistonda xorijiy tillar”ilmiy-metodik elektron jurnal N4(23)/2018 306-308b.

²⁰,,O‘zbekistonda xorijiy tillar”ilmiy-metodik elektron jurnal N4(23)/2018 308b.